



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 6**

**2026**

## **DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJIDA NODAVLAT TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Karimova Saida**

Guliston davlat universiteti, katta o'qituvchi (PhD)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada jamiyat yuksalib borishida ta'lim tizimi, xususan nodavlat ta'limning o'rni ko'rsatib berilgan bo'lib, u faqatgina iqtisodiy, texnik ko'rsatkichlar bilan o'lchanmay, balki ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Nodavlat ta'limning jamiyat qadriyatlar tizimi, fikrlash tarzi va dunyoqarash transformatsiyasiga ta'siri masalalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim, tarbiya, nodavlat ta'lim, sog'lom raqobat, ilm, "najot-ta'limda", nodavlat ta'lim tashkiloti.

## **РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ГОСУДАРСТВА И ОБЩЕСТВА**

**Каримова Саида**

Гулистанский государственный университет, старший преподаватель (PhD)

### **Аннотация**

В данной статье раскрывается роль системы образования, в частности негосударственного образования, в развитии общества. Данный вопрос рассматривается не только через призму экономических и технических показателей, но и подвергается социально-философскому анализу. Особое внимание уделяется влиянию негосударственного образования на систему общественных ценностей, образ мышления и трансформацию мировоззрения. Также анализируются возможности негосударственных образовательных учреждений в обеспечении качественного образования и формировании здоровой конкурентной среды.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, негосударственное образование, здоровая конкуренция, наука, «спасение — в образовании», негосударственная образовательная организация.

## **THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF NON-GOVERNMENTAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF THE STATE AND SOCIETY**

**Karimova Saida**

Gulistan State University, Senior Lecturer (PhD)

### **Abstract**

This article examines the role of the education system, particularly non-governmental education, in the development of society. The issue is analyzed not only through economic and technical indicators but also from a socio-philosophical perspective. Special attention is given to the impact of non-governmental education on the system of social values, ways of thinking, and the transformation of worldview. The study also highlights the contribution of non-governmental educational institutions to improving educational quality and fostering a healthy competitive environment.

**Keywords:** education, upbringing, non-governmental education, healthy competition, science, "salvation through education," non-governmental educational organization.

Xalqimiz azaldan ilm-ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga jiddiy e'tibor berib kelgan. Markaziy Osiyo diyori, xususan O'zbekiston jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan daholar vatani sifatida e'tirof etiladi. O'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan ma'naviyatining negizi hisoblangan ilmni qadrlash, ilm ahliga ehtirom ko'rsatish bugungi ta'lim islohotlarining tub negizi hisoblanadi. Buxorodagi Mirzo Ulug'bek madrasasi "eshik tabaqalariga arab tilida "Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir", degan ibora o'yib yozilgan"[1]. Bu tarixda ham ta'lim olish har bir jamiyat a'zosining muqaddas burchi bo'lib, ta'limda cheklovlar yo'q, demokratik yondashuv bo'lganidan dalolat beradi.

Jamiyatni yuksalishi, ma'rifatli bo'lishi bevosita uning a'zolarini bilim darajasi va ilmga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Inson bilim olishdan to'xtamasligi lozim. Bu haqida Yusuf Hos Xojib:

Нэчэ билдин эрсэ тақы бил тилэ

Билигли тэбир кор тилэккэ сора

(Qancha bilsang ham, yana o‘rgan, izla

O‘rganuvchi so‘rab-surishtirib, tilakka yetadi, ko‘r) [2], - deya ta‘kidlaydi. Ushbu purma‘no fikrlarni davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning ham “Najot – ta‘limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”[3] degan so‘zlari tasdiqlaydi.

Bugungi fan-texnologiya taraqqiy etgan dunyoda ta‘lim faqatgina bilim berish jarayoni bo‘lib qolmay, jamiyatning yuzi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy, madaniy qiyofasini belgilab beruvchi asosiy omildir. So‘nggi 10 yillikda amalga oshirilayotgan islohotlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida juda katta ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Bu islohotlar ta‘lim tizimini ham chetlab o‘tmadi, ushbu tizimda tub burilish yasadi deyish mumkin. Jumladan, davlat ta‘limi bilan bir qatorda nodavlat ta‘lim sektorini kengayishi bunga yorqin dalildir. Nodavlat ta‘limni taraqqiy etib borishi fuqarolik jamiyati institutlarining faollashib borayotganidan dalolat beradi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ta‘lim tizimini rivojlantirish, ta‘limning taraqqiyotga ta‘siri, shuningdek nodavlat ta‘limning ahamiyati kabi masalalar hamisha faylasuf olimlar diqqat markazida bo‘lgan.

Xorijiy olimlardan P.Schulte ta‘lim tizimini isloh qilish, xususan, tadbirkorlik universitetlarini rivojlantirish va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali umumiy iqtisodiy rivojlanishga erishish masalalarini[4] tadqiq etgan bo‘lsa, mamlakatimiz olimlaridan A.Umarov, N.Hakimovlar O‘zbekistonda nodavlat ta‘limning rivojlanish xususiyatlari, ushbu jarayonning bugungi islohotlar bilan bog‘liqligini tahlil etishgan [5]

Tadqiqotni olib borishda qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni tahliliy tadqiq etish, usullaridan foydalanildi.

#### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bugungi globallashuv davrida davlat va jamiyat taraqqiyoti ta‘lim tizimining moslashuvchanligi va ko‘p qirrali, sertarmoqliligi bilan belgilanayapti. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirib, nodavlat, xususiy sektorlar faoliyatining jadallashishiga ham yo‘l ochib berdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlashning kafolatlab qo‘yilishi bu boradagi sa‘y-harakatlarning huquqiy asoslarini mustahkamladi.

Konstitutsiyamizning 50-moddasida: “Har kim ta‘lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta‘lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlari rivojlanishini ta‘minlaydi” [6] deya belgilab qo‘yilgan. Aynan mana shu jumlarlar orqali mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha fuqarolarga nafaqat ta‘lim olishni, balki ta‘lim turini erkin tanlash imkoni ham berilgan. Davlat ta‘lim tashkilotlari bilan teng huquqli asosda nodavlat ta‘lim tashkilotlarini ham mavjudligi amalda tanlov huquqini ta‘minlaydi. Fuqarolar o‘zlari hamda farzandlari uchun dunyoqarashi va maqsadlariga mos keluvchi istalgan ta‘lim muassasasini tanlashlari mumkin. Shu bilan birga shaxsga ta‘lim tanlash erkinligini berish orqali uning zimmasiga o‘z kelajagi uchun javobgarlik, individual mas‘uliyatni ham yuklaydi.

“Nodavlat ta‘lim tashkiloti — davlat ta‘lim standartlari, davlat ta‘lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta‘lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta‘lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs” [7]. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan nodavlat ta‘lim jamiyatga erkin tanlov imkoniyatini beradi. Ta‘limning faqat davlat tasarrufidagi ta‘lim tashkilotlarida amalga oshirilishi rivojlanishning sust kechishiga olib kelishi mumkin. Agar ham davlat ham nodavlat ta‘lim tashkilotlarida teng imkoniyatlar asosida ta‘lim olish rag‘batlantirilsa sog‘lom raqobat muhiti yaratiladi, kadrlar sifati yaxshilanadi va jamiyat hamda davlat taraqqiyoti tezlashadi. Chunki, davlat ta‘lim tashkilotlari yagona tanlov emas, unga muqobil raqobatchi mavjud bo‘ladi. Bu o‘z navbatida nodavlat ta‘lim sektori bilan raqobatlashish natijasida davlat ta‘lim tashkilotlari o‘z ustida ishlashga, o‘quv dasturlarini zamon talablariga moslab yangilashga, xizmat sifatini oshirishga majbur bo‘lib qoladi. Xususiy sektor ham hamisha davlat ta‘lim tashkilotlaridan ilgarilashga harakat qilishi natijasida yangiliklar joriy qilishga, xorijiy ilg‘or tajribalarni tadbiq etishga intiladi. Aynan mana shu faktor butun boshli ta‘lim tizimini isloh bo‘lishiga, ta‘lim sifatining ko‘tarilib borishiga turtki bo‘ladi, O‘zbekistonni jahon ilm-fan bozorida raqobatbardosh qiladi.

Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi statistik ma‘lumotlar platformasidagi hisoboti ma‘lumotlariga ko‘ra bugungi kunda mamlakatimizda jami 207 ta Oliy ta‘lim muassasasi bor. Shundan 101 ta davlat, 74 ta nodavlat, 32 ta xorijiy ta‘lim muassasalari mavjud [8].

Nodavlat ta‘lim tashkilotlari davlatning iqtisodiy xarajatlarini kamaytiradi, yukini yengillatadi. Ma‘lumki, mamlakatimiz aholisi soni o‘sib boryapti. “Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra,

2026 yil 1 aprel holatiga O‘zbekistonning doimiy aholisi soni 38 382 685 kishini tashkil etgan”[9]. Bu o‘tgan yilgiga nisbatan 1,8 foizga oshganidan darak beradi. Aholining o‘tib borishi davlatni ularni ta’lim bilan qamrab olish va iqtisodiy xarajatlarni ko‘paytirishga majbur qiladi. Aynan shunday vaziyatda nodavlat ta’lim tashkilotlari davlatning yukini yengillatadi. Har bir xususiy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga borayotgan bola yoki talaba orqali davlat iqtisodiy harajatlari yengillab boradi. Lekin, faqat iqtisodiy foyda yoki davlat yukini yengillashtirishni o‘zi emas. Masalaning ijtimoiy-falsafiy jihati ham bor. Nodavlat ta’lim jamiyatning bilimga bo‘lgan munosabatining transformatsiyasiga, jamiyatning intellectual qiyofasini tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

Biroz ortga nazar tashlansa faqat davlat ta’lim muassasalariga e’tibor qaratilgan davrda asosan barchasi bir xil metodologiyaga tayanib ish ko‘rdi. Natijada, asosan dunyoqarashlari bir-biriga yaqin bo‘lgan, bilim darajasi ham deyarli aksariyat ko‘pchiligida standart shakllangan insonlar yetishib chiqdi. Jamiyatdagi mavqe ham diplom bilan o‘lchangandek go‘yo. Nodavlat sektorni maydonga kelishi natijasida esa raqobat kuchaydi, har ikkala ta’lim sektorida shaxsga individual yondashuv rivojlana bordi. Jamiyatda bilimli, unikal insonlarni nufuzi oshib, diplom shunchaki vosita sifatida ko‘rila boshlandi. Kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyi, tanish-bilishlari yoki faqatgina ma’lumotini tasdiqlovchi diplomiga qarab emas, iqtidori, qobiliyati, intellektual fikrlash tarzi, olgan bilimlarining zamon talablariga mosligiga ko‘ra baholash boshlandi. Eng asosiysi, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega, davlat va jamiyat muammolariga muqobil yechimlar topishga intiluvchi, eskicha, standart qoliplardan forig‘ bo‘lgan yoshlar maydonga kela boshladi. Jamiyatda plyuralizm, sog‘lom raqobat, kelajakka nisbatan ishonchni kuchaytirdi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, nodavlat ta’lim sektori jamiyatda bilimning qadrini oshirishga, unga bo‘lgan munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarishiga turtki bo‘ladi. Yoshlarni ta’lim bilan qamrab olish borasida davlatning yukini yengillatish bilan bir qatorda, uyushmagan yoshlar sonini kamayishiga xizmat qiladi.

Nodavlat ta’lim muassasalari har bir o‘quvchiga individual qobiliyati va ehtiyojlari nuqtai nazaridan yondashadi. Bu ta’lim oluvchining nafaqat bilimining yuksalishi va mantiqiy fikrlashiga, balki tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga ham ta’sir qiladi. Bu o‘z navbatida, jamiyatning intellektual qiyofasini o‘zgartirib, zamon bilan hamnafas, kreativ shaxslar bilan boyitadi.

Umuman olganda nodavlat ta’limning ma’rifatli jamiyat barpo etishdagi hissasi katta. Bunda ushbu sektor Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti va intellektual salohiyatini oshiruvchi innovatsion mexanizm sifatida maydonga chiqadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Meros.uz – Mirzo Ulug‘bek madrasasi <https://meros.uz/object/mirzo-ulugbek-madrasasi>
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – T.: Fan, 1972. – 948–949-betlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2022-yil 20-dekabr).
4. Schulte P. The Entrepreneurial University: Strategy for Institutional Development // Higher Education in Europe. – 2024. – Vol. 29. – № 2. – P. 187–193.
5. Umarov A., Hakimov N. O‘zbekistonda nodavlat ta’lim: monografiya. – Toshkent: Firdavs-Shoh nashriyoti, 2025. – 338 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.09.2020-yil, O‘RQ-637-son.
8. Lex.uz hujjati <https://lex.uz/docs/-5013007>
9. Oliy ta’lim statistikasi portal <https://stat.edu.uz/>
10. Rasmiy statistika Telegram kanali [https://t.me/statistika\\_rasmiy/7441](https://t.me/statistika_rasmiy/7441)